

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 100-107 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA TIZIMIDA SHAXSIY SUG'URTANING TUTGAN O'RNI



Bazarov Zakir Xonqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sug’urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug’urta tizimida shaxsiy sug’urtaning tutgan o’rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, shaxsiy sug’urtaning aholining hayoti, sog’lig’i va mehnatga layoqatini moliyaviy himoyalashdagi roli, uning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o’rni hamda iqtisodiy xavflarni kamaytirish mexanizmlari yoritib beriladi. Tadqiqot davomida shaxsiy sug’urtaning sug’urta bozoridagi ulushi, rivojlanish tendensiyalari va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko’rib chiqiladi. Shuningdek, shaxsiy sug’urtaning jamg’arish va investitsion funksiyalari, aholining sug’urta madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati hamda milliy sug’urta tizimini rivojlantirishdagi strategik roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shaxsiy sug’urtani takomillashtirish bo’yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so’zlar. sug’urta tizimi, shaxsiy sug’urta, hayot sug’urtasi, sog’liqni sug’urtalash, ijtimoiy himoya, moliyaviy barqarorlik, sug’urta bozori

Аннотация. В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли и значения личного страхования в системе страхования. В частности, освещается роль личного страхования в финансовой защите жизни, здоровья и трудоспособности населения, его роль в обеспечении социальной стабильности и механизмы снижения экономических рисков. В исследовании рассматривается доля личного страхования на страховом рынке, тенденции развития и основные факторы, влияющие на нее. Также обосновываются сберегательно-инвестиционные функции личного страхования, его важность в формировании страховой культуры населения и его стратегическая роль в развитии национальной системы страхования. Результаты исследования имеют большое значение для разработки научных выводов и практических рекомендаций по совершенствованию личного страхования.

Ключевые слова страховая система, личное страхование, страхование жизни, медицинское страхование, социальная защита, финансовая стабильность, страховой рынок.

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of the role and significance of personal insurance in the insurance system. Specifically, it highlights the role of personal insurance in financially protecting the life, health, and ability to work of the population, its role in ensuring social stability, and mechanisms for mitigating economic risks. The study examines the

share of personal insurance in the insurance market, its development trends, and the main factors influencing it. It also substantiates the savings and investment functions of personal insurance, its importance in shaping the population's insurance culture, and its strategic role in the development of the national insurance system. The study's results are of great importance for developing scientific conclusions and practical recommendations for improving personal insurance.

Keywords: insurance system, personal insurance, life insurance, health insurance, social security, financial stability, insurance market.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon miqyosida shaxsiy sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, ushbu soha orqali investitsiya oqimini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishda sug'urtaning rolini oshirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda shaxsiy sug'urta xizmatlarini takomillashtirish, uning infratuzilmaviy institutlari faoliyatini rivojlantirish, aholining sug'urta madaniyatini yuksaltirish, shaxsiy sug'urta turlarini diversifikatsiyalash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda shaxsiy sug'urta tizimining iqtisodiyotdagi o'rni, uning aholi farovonligi va investitsion muhitga ta'siri, shuningdek, soha rivojiga ijobiy va salbiy omillarning tahlili ham muhim o'rin egallaydi. Biroq, iqtisodiyoti shakllanish bosqichida bo'lgan davlatlarda shaxsiy sug'urta tizimining institutsional asoslari yetarlicha mustahkam emasligi, sug'urta kompaniyalari tomonidan aholiga taklif etilayotgan moliyaviy va investitsion xizmatlarning cheklanganligi, ayrim mavjud turlaridan samarali foydalanilmayotgani shaxsiy sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirishda to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, bunday mamlakatlarda shaxsiy sug'urta bozorining investitsiyalarni jalb etishdagi rolini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, sug'urta tashkilotlariga mijozlar tomonidan 143,7 mingta da'vo arizasi taqdim etilgan. Ushbu murojaatlarning katta qismi hayot sug'urtasi, avtotransport vositalarini sug'urtalash hamda tibbiy sug'urta yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkichlar aholining sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi ortayotganini va sug'urta tizimi real iqtisodiyotdagi moliyaviy himoya mexanizmi sifatida faol ishlayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, "sug'urta kompaniyalari tomonidan 2,2 trillion so'mdan ortiq sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan. Bu esa o'tgan yilgi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori bo'lib, sohada nafaqat mukofot yig'implari, balki to'lov intizomi ham yaxshilanayotganini bildiradi. To'lovlar hajmining oshishi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini tasdiqlaydi. Yil yakunida sug'urta kompaniyalari zimmasidagi umumiy sug'urta majburiyatlari qariyb 2 702,1 trillion so'mni tashkil etdi"[6]. Bu raqam sug'urta sektori hajmining kengayib borayotganini va kompaniyalar tomonidan qamrab olingan moliyaviy risklar hajmining sezilarli darajada ortganini anglatadi. Ushbu tendensiya sug'urta tizimining mamlakat moliya bozoridagi rolini kuchaytirish, uning investitsion salohiyatini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy ilmiy manbalarda shaxsiy sug'urta xizmatlarining iqtisodiy tizimdagi tutgan o'rni va funksional ahamiyatini tadqiq etishga qaratilgan fundamental va amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlar keng o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda yetakchi xorijiy olimlar tomonidan milliy iqtisodiyot doirasida shaxsiy sug'urtalash tizimining shakllanishi va institutsional rivojlanish jarayonlari, uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, aholi farovonligini oshirishga ko'rsatayotgan ta'siri hamda uzoq muddatli jamg'arish mexanizmlarini faollashtirishdagi ahamiyati kompleks va tizimli yondashuv asosida chuqur tahlil qilingan. Bular asosan T.Prokopeva, T.A. Fedorova, Yu.B. Maxtina, O.I. Rusakova, S.V. Shoyko, N.N. Abashin kabi taniqli xorijiy iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahliliy ishlar amalga oshirilgan.

Mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlar tomonidan shaxsiy sug'urta mahsulotlarining nazariy konsepsiyalari, amaliy qo'llash mexanizmlari hamda ularning samarali jihatlari yuzasidan muntazam ilmiy tadqiqotlar ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz olimlari X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov G.T. Xoliqulova, I.G'.Kenjayev, S.R.Matniyazova, G.D.Adilova, I. Abduraxmonov, Sh.Zokirxo'jayeva, F.Sh.Xamrayevalar[1,2,3,4] kabi mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni sug'urta tizimiga integratsiya qilish, raqamli platformalar negizida xizmat ko'rsatish jarayonlarini rivojlantirish hamda elektron sug'urta tizimlari orqali mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan dolzarb ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda mamlakatimizda shaxsiy sug'urta bozorini holatini ma'lumotlar asosida o'rganib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribalar hamda mamlakatning iqtisodiy holatini tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida 2015–2024 yillar davomida sug'urtasi xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari – xususan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari, amalga oshirilgan to'lovlar holatini o'sish dinamikasi, barqarorlik darajasi va muvozanatlilik holati baholandi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini har tomonlama va chuqur tahlil qilish, uning jamiyat va iqtisodiyot rivojida o'rni, funksiyalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asosda yoritish, shuningdek shaxsiy sug'urta tizimining shakllanishi va takomillashuvi jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy muammolarni aniqlashdan iboratdir.

Tahlil va natijalar

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida infratuzilmaviy o'zgarishlar va institutsional rivojlanish tendensiyalari jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi asosiy professional ishtirokchilar – kompaniyalar, brokerlik tuzilmalari, aktuarlar va tahlilchilarning ko'payishi bozor mexanizmlarining takomillashuviga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, raqobat muhiti kuchayib, sug'urtalovchi tashkilotlar xizmat sifati hamda iste'molchilar bilan ishlash mexanizmlarini zamonaviy talablar darajasida yangilashga majbur bo'lmoqda. Ayniqsa, kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan sug'urta xizmatlari sifati xalqaro standartlarga


moslashtirilmoqda va bu jarayonda ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat menejmenti tizimlarining joriy etilishi muhim o'rin tutmoqda. Ushbu tizimlar xizmat ko'rsatishda tizimlilik, shaffoflik, mijozga yo'naltirilganlik va uzluksiz takomillashuv prinsiplarini joriy etishga imkon yaratmoqda. Natijada, sug'urta kompaniyalari mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini standartlashtirish va sifatni nazorat qilish tizimlarini kuchaytirish orqali xizmatlar samaradorligini oshirmoqda. Sug'urta bozorida bunday o'zgarishlar nafaqat xizmat sifati, balki iste'molchilar ishonchi va bozorning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sug'urta mahsulotlarini yaratishda innovatsion marketing usullaridan foydalanib, aholining fikr va takliflarini inobatga olgan holda, sug'urta shartnomalari, polislari, tarqatma materiallar va reklama mahsulotlari estetik va jozibador ko'rinishda tayyorlanmoqda. Shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish ofislari zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanmoqda.

2022 yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi sifatida qayta tashkil etildi. Farmonga muvofiq, Agentlik kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohada faoliyatni litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bo'yicha vakolatli etib belgilandi[6].

2023 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan Agentlikka Iqtisodiyot va moliya vazirligining kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi faoliyatini tartibga solish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, shuningdek, sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifa, funktsiya va vakolatlari o'tkazildi. Agentlik ushbu sohalarda tartibga solish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi.

2024 yil 31 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan umumiy sug'urta tashkilotlari soni 42 taga yetdi, ulardan 34 tasi umumiy sug'urta tarmog'i, shundan 6 ta sug'urta tashkiloti litsenziyasi bekor qilingan va 8 tasi hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat olib bormoqda, shundan 3 ta sug'urta tashkiloti litsenziyasi bekor qilingan.



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida amalga oshirilgan umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlarida sug'urta to'lovlarining yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mldr.so'm) [5]

1-rasm ma'lumotlarga asosida 2015–2024 yillar davrida O'zbekiston sug'urta bozorida barqaror o'sish yo'nalishi sezildi. Sug'urta mukofotlari hajmi 2015 yildagi 551,5 mlrd so'mdan 2024 yilda 9 483,7 mlrd so'mga yetib, qariyb 17 baravarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan shuni ko'rish mumkinki mamlakatda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab oshib borayotganligini, sug'urta madaniyatining sezilarli ravishda yaxshilanayotganini hamda aholining moliyaviy savodxonligi ham o'sib borayotganini ko'rish mumkin.

Sug'urta to'lovlari ham xuddi shu davrda 111,0 mlrd so'mdan 2 073,1 mlrd so'mga oshgan bo'lib, 18,7 baravarlik ko'tarishga erishildi. Bu esa sug'urta kompaniyalarining risklarni qoplash bo'yicha majburiyatlarini bajarish darajasi rivojlanganligini bildiradi. 2020 yilda pandemiya sharoitida sug'urta mukofotlarining pasayishi (2019 yilga nisbatan 18,8% ga kamaygan) kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda keskin tiklanish jarayoni sodir bo'lgan va bozor rekord darajada o'sish bosqichiga erishgan.

Shuningdek, 2019–2024 yillarda sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati to'lovlar dinamikasidan yuqori bo'lgani, sug'urta sektorining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Bu vaqtlarda tarif siyosatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari orqali avtomatlashtirish jarayonlarini kengaytirish, sog'liq va hayotni sug'urtalash xizmatlarining o'sishini bozor rivojiga kuchli omil bo'lib kelmoqda.

Umuman olganda, bu davr tahlili mamlakat sug'urta bozorining tezkor qayta shakllantirish bosqichini, uzoq muddatli barqaror o'sish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini va bozorda jozibadorlik darajasi oshganini ko'rsatadi. Kelgusi yillarda sug'urta talabining oshishi, aholining ijtimoiy himoya mexanizmlariga bo'lgan ehtiyoji va raqamli sug'urta mahsulotlarining kengayishi bozor rivojiga qo'shimcha imkoniyatlar olib keladi.

Sug'urta mukofoti – sug'urta kelishuvida ko'rsatilgan shartlar va muddatlar asosida sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalovchiga amalga oshiriladigan moliyaviy to'lovdir, bu orqali sug'urta xizmatidan foydalanadi. Mazkur to'lov sug'urta summasining hajmi, tarif stavkalari, sug'urta muddati hamda boshqa omillar bilan belgilanadi.

Umuman olganda, yig'ilgan sug'urta mukofotlari aylanmasining mustahkam oshib borishi – O'zbekiston sug'urta bozorining hajman kengayib, mazmunan chuqurlashayotganini ifodalaydi. Bu jarayon, bir tomondan, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi darajasi ortib borayotganidan dalolat bersa, boshqa tomondan, bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaning xavflarni boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Sug'urta mukofotlari moliyaviy resurslar sifatida sug'urta kompaniyalarining faoliyatini moliyalashtirishda asosiy manba bo'lib, ularning kapital ko'payishiga, investitsion imkoniyatlari va risklarga mustahkamligini oshiradi. Mazkur *parametr* o'sib borayotgan bo'lsa, bu sug'urta sohasining iqtisodiy tartibdagi strategik ahamiyati ko'payib borayotganini, ya'ni u nafaqat ijtimoiy himoya vositasi, balki kapital jamg'aruvchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim iqtisodiy omil sifatida shakllanayotganini anglatadi. Ayniqsa, sug'urta mukofotlari hajmining o'sishi makroiqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, davlatning moliyaviy sektori turli yo'nalishlarni kengaytirish, moliyaviy inklyuzivlikning rivojlantirish va iqtisodiyotda xatarlarni taqsimlash mexanizmlarining takomillashib borayotganidan ko'rish mumkin. Shu bois, yig'ilgan mukofotlar miqdoridagi o'sish

sug'urta sohasining iqtisodiy tizimda hozirgi kunda egallayotgan o'rnini mustahkamlab, uni uzoq muddatli barqaror taraqqiyot omili sifatida ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta sohasidagi majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari (mlrd.so'm) [5]

Sug'urta shakli bo'yicha turlari	Yillar									
	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Majburiy sug'urta	186,7	207,6	233,3	263,5	313,3	338,0	476,3	491,3	632,4	664,7
Ixtiyoriy sug'urta	364,8	485,0	694,1	1 371,7	2 000,6	1 541,3	2 538,7	4 215,8	7 104,8	8 819,0
Jami:	551,5	692,6	927,4	1 635,2	2 313,9	1 879,3	3 015,0	4 707,1	7 737,2	9 483,7

1-jadval ma'lumotlarga asosida majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha 2015–2024 yillar davomida O'zbekiston sug'urta bozorida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jami sug'urta mukofotlari 2015 yildagi 551,5 mlrd so'mdan 2024 yilda 9 483,7 mlrd so'mga yetib, 10 yil oralig'ida qariyb 17 baravar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ayniqsa ixtiyoriy sug'urta turlari bozorining asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Bu ko'rsatkichlar hajmi 2015 yildagi 364,8 mlrd so'mdan 2024 yilda 8 819,0 mlrd so'mga ko'tarilib, 24 baravardan ortiq o'sishni kuzatilgan.

Majburiy sug'urta turlari ham ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 2015 yil boshidagi 186,7 mlrd so'mdan 2024 yilda 664,7 mlrd so'mga yetgan, biroq uning ulushi umumiy bozor tarkibida nisbatan yetarlicha bo'lmagan darajada saqlanib qolgan. Bu jarayon xo'jalik subyektlarining ham, aholining ham, ixtiyoriy sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji sezilarli ravishda oshganini, shuningdek, moliyaviy savodxonlik va xavflarni boshqarish madaniyati yanada takomillashganligini ko'rish mumkin.

2020 yilda pandemiya sababli sug'urta bozori hajmida qisqa muddatli pasayish kuzatilganiga qaramay, keyingi yillarda, ayniqsa 2021 yildan boshlab sug'urta mukofotlari hajmi keskin tiklanib, yuqori o'sish sur'atlarini etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu hukumat tomonidan sug'urta sohasini liberallashtirish, hayot sug'urtasi va boshqa uzun muddatli sug'urta mahsulotlarini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan institutsional islohotlar, xorijiy kapitalni jalb etish samarasi sifatida baholanadi.


Umuman olganda, statistik ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatning kuchayayotganini, moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish jarayonining faollashganini hamda aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada oshganini tasdiqlaydi.

Kelgusida sug'urta bozorida innovatsion mahsulotlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, soliq va regulatoriy mexanizmlarni takomillashtirish orqali o'sish tendensiyasini davom ettirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Majburiy sug'urta mukofotlari ham yildan-yilga ortib bormoqda, biroq o'sish sur'ati ixtiyoriy sug'urtaniki bilan solishtirganda pastroq. Bu davlat tomonidan belgilangan sug'urta turlari doirasida barqaror rivojlanish kuzatilayotganini ko'rsatadi.

Sug'urta mukofotlari hajmining ortishi sug'urta bozorida tizimli rivojlanishning yaqqol ifodasidir. Bu holat, avvalo, bozor ishtirokchilari sonining ko'payganligi, ya'ni yangi sug'urta tashkilotlarining kirib kelishi bilan bog'lanadi. Shu bilan birga, sug'urta xizmatlari ko'lamining kengayishi, raqobat muhitining kuchayishi va innovatsion mahsulotlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi ushbu o'sishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kompaniyalar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar sifati oshgani, mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlarining xalqaro talablarga yaqinlashtirilgani va raqamli texnologiyalar asosida interaktiv xizmatlar rivojlanayotgani natijasida fuqarolarning sug'urta tizimiga nisbatan ishonchi ortib bormoqda. Natijada, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabining ortishi sug'urta mukofotlari miqdorining o'sishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmining ortishi, avvalo, aholining moliyaviy-iqtisodiy savodxonligi keskin oshib borayotganining yaqqol ko'rsatkichlaridan biridir. Bu jarayon shuni anglatadiki, aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan munosabati passiv ehtiyoj emas, balki ongli iqtisodiy qarorga aylangan. Sug'urtani faqat majburiyat sifatida emas, balki mol-mulk, uy-joy sug'urtasi, sog'liq va hayotni himoya qilish vositasi sifatida qabul qilinayotganligi — moliyaviy xatti-harakatlar madaniyatining shakllanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, aholining mulkiy xavfsizlikka bo'lgan e'tibori ortib borayotgani, sug'urtani xatarlarni boshqarish va kelgusidagi moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish vositasi sifatida angalayotgani muhim o'zgarishdir.



2-rasm. Umumiy sug'urta sohasidagi ixtiyoriy va majburiy sug'urta mukofotlarining ulushlari (foizda)[5]

2-rasm ma'lumotlarga asosida ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari natijalari shuni ko'rsatadiki, 2015–2024 yillar davomida O'zbekiston sug'urta bozorida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jami sug'urta mukofotlari 2015 yildagi 551,5 mlrd so'mdan 2024 yilda 9 483,7 mlrd so'mga yetib, 10 yillik davrda qariyb 17 baravar oshgan. Bunda ayniqsa ixtiyoriy sug'urta segmenti bozorning asosiy drayveri bo'lib xizmat qilgan: ushbu segment hajmi 2015 yildagi 364,8 mlrd so'mdan 2024 yilda 8 819,0 mlrd so'mga ko'tarilib, 24 baravardan ortiq o'sishni namoyon qilgan.

Majburiy sug'urta segmenti ham ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lib, davr boshidagi 186,7 mlrd so'mdan 2024 yilda 664,7 mlrd so'mga yetgan, biroq uning ulushi

umumiy bozor tarkibida nisbatan past darajada saqlanib qolgan. Bu esa aholi va xo'jalik subyektlarining ixtiyoriy sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtoyojning keskin ortib borayotganini, moliyaviy ong va risklarni boshqarish madaniyatining keskin ortib borayotganini ko'rsatadi.

2020 yilda pandemiya omili tufayli bozor hajmida qisqa muddatli pasayish kuzatilganiga qaramay, keyingi yillarda, ayniqsa 2021 yildan boshlab sug'urta mukofotlari hajmi keskin tiklanib, yuqori o'sish sur'atlarini qayd etgan. Bu hukumat tomonidan sug'urta sohasini liberallashtirish, xorijiy kapitalni jalb etish, hayot sug'urtasi va boshqa uzun muddatli sug'urta mahsulotlarini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan institutsional islohotlarning samarasi sifatida baholanadi.

Umuman olganda, statistik dinamika O'zbekiston sug'urta bozorida raqobatning o'sib borayotganini, moliyaviy vositalar diversifikatsiyasi jarayoni jadallashganini va aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi sezilarli ravishda yuksalganini tasdiqlaydi. Kelgusida sug'urta bozorida innovatsion mahsulotlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, soliq va regulatoriy mexanizmlarni takomillashtirish orqali o'sish tendensiyasini davom ettirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.G'.Kenjayev, S.R.Matniyazova, G.D.Adilova Sug'urta mahsulotlari sotishni tashkil etish. O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya"-2018.
2. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.
3. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'Kenjayevlar "Sug'urta ishi" O'quv qo'llanma. – Toshkent.: "Iqtisod-moliya 2014. 96-b.
4. Abduraxmonov I.X., Tursunov J.P., Zakirxodjayeva Sh.A., Xamrayeva F.Sh., Sug'urta ishi: I qism. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2021. – 592 b.
5. <https://napp.uz/uz/pages/malumot> sayt ma'lumotlari
6. <https://tanga.uz/news/149> sayt ma'lumotlari

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

